



Development of students' creativity in technology classes of primary education

Mukharram AKHMADALIYEVA¹

Tashkent State Pedagogical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024

Received in revised form

15 January 2024

Accepted 25 February 2024

Available online

15 March 2024

Keywords:

primary education,
creativity,
technology lessons,
4K model.

ABSTRACT

This article describes the basics of developing students' abilities in primary school classes. The importance of developing students' abilities was considered. The basics of the factors affecting the development of students' abilities are shown in the technology lessons of the primary class.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp219-221>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Boshlang'ich ta'lim texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

boshlang'ich ta'lim,
kreativlik,
texnologiya darslari,
4K modeli.

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish asoslari yoritilgan. Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarning qobiliyatini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar asoslari ko'rsatib o'tilgan.

Развитие творческих способностей учащихся начального образования на уроках технологии

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

начальное образование,
творчество,
уроки технологии,
модель «4К».

В этой статье изложены принципы развития способностей учеников начальной школы. Освещается значимость стимулирования способностей учеников. Основные факторы, оказывающие влияние на развитие этих способностей, демонстрируются на примере уроков технологии для начальных классов.

¹ Teacher, Tashkent State Pedagogical University.

Bugungi kunda dunyoda ta'lim sohasini qayta ishlab chiqish, yangiliklar kiritish, o'qitishning metodik ta'minotini zamonaviy rivojlanish tendensiyalarga asosan takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda.

Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida xalqaro baholash dasturining (PISA, TIMSS) egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llashga oid natijalariga asoslanib, o'quv materiallarni takomillashtirishda o'quvchilarning kreativligini oshiruvchi pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoniga ko'ra, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Yurtimizda ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqishdagi islohotlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini tashkil etishning pedagogik yondashuvlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Maktablarimizdagi zamonaviy ta'lim darslarida o'quvchilarni mustaqil va kreativ fikrlashga yo'naltirishni taqozo etmoqda. O'zbekistonda 2023-o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi darsliklar avlodidan ta'lim olishni boshladilar. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning "4K" tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. "4K" modeli o'z nomi bilan 4 tamoyilni o'z ichiga oladi. Bular: **kollaboratsiya**- ta'lim oluvchining jamoa bo'lib ishlash qobiliyatini shakllantirish; **kommunikativlik** – odamlar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish, **kreativ fikrlash** – o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish; **kritik fikrlash** – o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish; masalaga tanqidiy yondashish demakdir.

Kichik yoshdagi o'quvchilarni bilim, malaka, ko'nikmalarni rivojlantirish, kreativ fikrlashni shakllantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, kasb-hunarga yo'naltirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatish muhim muammolardan biridir.

Shunday ekan, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni ijodiy mehnatga o'rgatish, kreativ qobiliyatlarini shakllantirishda texnologiya darslarining o'rni juda kattadir.

"Kreativlik qobiliyati – ilgari mavjud bo'lmagan yangi narsalarni yaratishga qaratilgan odamlarning faoliyati; ma'lum bo'lgan, materialdan shaxsning mehnat jarayonida turli xil ijtimoiy ehtiyojlarga javob beradigan yangi haqiqatni yaratish qobiliyati". Ensiklopedik lug'atda kreativlik "o'ziga xos va ijtimoiy-tarixiy individuallik bilan ajralib turadigan yangi obyekt va predmetlarni yaratadigan faoliyat" deb ta'riflanadi.

Texnologik ta'lim sohasida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish muammosini nazariy tahlil qilish asosan ikkita asosiy masalani hal qilishni o'z ichiga oladi. Birinchidan, boshlang'ich ta'lim mazmunida kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini aks ettirish; ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun boshlang'ich ta'limning ilmiy va pedagogik salohiyatidan foydalanish. Mazkur bosqichda yuqoridagi muammolarni hal qilish xususiyatlarini tavsiflashga harakat qilamiz.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish sharoitida umumiy o'rta-ta'lim muassasalari o'qituvchilari boshlang'ich ta'lim tizimi va "Texnologiya"larini yanada rivojlantirish yo'llarini tanlash muammosiga duch kelmoqda. Bizning fikrimizcha, ilg'or tajribalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, ulardan shartli ravishda bir nechta, asosiy yo'llarning integratsiyasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini ularning qiziqishlari, moyilliklari, shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishni o'z ichiga olgan ta'lim mazmunining shaxsiy yo'nalishi;

- ta'lim mazmunining faoliyat komponentini kuchaytirish;

- o'rganilayotgan fanlarning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini ta'minlash.

Kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirish uchun asos sifatida boshlang'ich sinf o'quvchisining intellektini har tomonlama rivojlantirish xizmat qiladi.

Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilim bilan qurollantirish jarayonida ularning kreativlik qobiliyatlari va insonparvarlik asoslarini shakllantirish ham zarur.

O'rta ta'limning mazmuni an'anaviy asosiy fanlar, shu jumladan

"Texnologiya" fanini o'qitish bilan ta'minlanadi. Umumta'lim maktablarida "Texnologiya" fani darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish ularning fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, mustaqil topshiriqlarni bajarish, turli masalalarni yechishga kreativ yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Yaqin kelajakda o'quv fanlarining mohiyati dunyodagi o'zgarishlar va asosiy fanlarning yutuqlariga muvofiq o'quv materialini yangilash nuqtai nazaridan o'zgaradi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ma'lum bir kasbga yo'naltirilgan maxsus kurslarni joriy etish rejalashtirilgan.

O'rta maktabda an'anaviy texnologiya ta'limi kursi ilmiy, texnik, texnologik bilimlarni sintez qiladigan va ulardan inson faoliyatining turli sohalarida foydalanishning ahamiyatini ochib beradigan "Texnologiya" fani o'rnini bosdi.

Ushbu fanda loyihalash ta'lim usuli qo'llaniladi. O'quvchilar loyihalarni mustaqil ravishda, o'qituvchi rahbarligida amalga oshiradilar. Bu ularga kelajakagi hayot uchun zarur bo'lgan loyihalash, konstruktorlash, kreativ faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishga imkon beradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda kreativlik qobiliyatlarning rivojlanishi jarayoni bilan olingan bilim va ko'nikmalar o'quvchilar tomonidan "Texnologiya" fanini muvaffaqiyatli o'rganish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son qarori.

3. Azizxo'jaeva N.M. (2006) Pedtexnologiya va pedagogik mahorat. – T.: "Fan, 61–69-b.

4. O'rmonova D.M. Takrorlash va mustahkamlash darslarini "4k" modeli asosida tashkil etishda kolloborativ muhitdan foydalanish. Innovative Development in Educational Activities, ISSN: 2181-3523 VOLUME 2| ISSUE 3| 2023.

5. Niyazmetova N.B. Texnologiya fani darslarida o'quvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirish texnologiyasi. A versatile teacher, ISSN: 2309-6009 Issue 2(8), 2020.